

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
“TARMOQLAR IQTISODIYOTI” KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 334.764:338.49

RAJABOV JUR‘ATBEK SHONAZAR O‘G‘LI

SANOAT SALOHIYATINI YANADA OSHIRISHDA TEXNOPARK,
KICHIK SANOAT ZONALARI, HUDUDIY KLASTER VA LOGISTIKA
MARKAZLARINING O‘RNI

70310102 – “Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) mutaxassisligi bo‘yicha

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar:
dots. v.b. PhD. R.S.Xoliqova

TOSHKENT – 2023


Magistrlik dissertatsiya ishi "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan. 23 - sonli bayonnoma « 21 » 04. 2023 y.

Ilmiy rahbar: R.S.Xoliqova


imzo

_____ sana

Magistrant: J.Rajabov


imzo


_____ sana

Dissertatsiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2023 yil « 29 » 05

№ 1/24 raqami bilan ro'yxatga olingan

"Himoyaga ruxsat etiladi"

"Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrası

mudiri dots. I.Xotamov 

« 8 » « may » 2023 yil

Himoya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida

2023 yil « 29 » 05 soat « 10^{00.} » da bo'ladi

MUNDARIJA

I BOB	KIRISH.....	8
1.1.	Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	8
1.2.	Tadqiqot maqsadi va vazifalari	10
1.3.	Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	10
1.4.	Tadqiqot ishining obyekti va predmeti.....	12
1.5.	Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	12
1.6.	Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	13
II BOB	ADABIYOTLAR SHARHI VA TAHLILI.....	14
2.1.	O‘zbekistonda innovatsion infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirishning zaruriyati.....	14
2.2.	O‘zbekistonda texnopark, kichik sanoat zonalari, hududiy klaster va logistika markazlarini rivojlantirish bo‘yicha o‘rganilgan adabiyotlar sharxi.....	17
2.3.	Texnopark, kichik sanoat zonalari, hududiy klaster va logistika markazlarining shakllanishi, tasniflanishi va sanoat salohiyatini yanada oshirishdagi o‘rni.....	21
III BOB	TADQIQOT METODOLOGIYASI.....	36
3.1.	Tadqiqot nazariy va metodologik asoslari	36
3.2.	Ma’lumotlarni to‘plash jarayoni.....	37
3.3.	Tahlil uchun qo‘llaniladigan usullar.....	37
IV BOB	O‘ZBEKISTONDA TEXNOPARK, KICHIK SANOAT ZONALARI, HUDUDIY KLASTER VA LOGISTIKA MARKAZLARINING HOZIRGI HOLATI VA TAHLILI.....	39
4.1.	O‘zbekistonda texnopark, kichik sanoat zonalari, hududiy klaster va logistika markazlari faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari.....	39
4.2.	O‘zbekistonda texnopark, kichik sanoat zonalari, hududiy klaster va logistika markazlari rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlili.....	48
4.3.	Texnopark, kichik sanoat zonalari, hududiy klaster va logistika markazlarining rivojlanish tamoyillari.....	65
4.4.	O‘zbekistonda texnopark, KSZ, hududiy klaster va logistika markazlarini shakllantirish va rivojlantirishning konseptual modeli.....	78
V BOB	XULOSA VA TAKLIFLAR.....	79
5.1.	Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	79
5.2.	Tadqiqot natijasida keltirilgan asosiy tavsiya va takliflar	81
5.3.	Kelgusi tadqiqotchilar uchun takliflar	86
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	87

ANNOTATSIYA

Mazkur magistrlik ishida O'zbekistonda sanoat salohiyatini oshirishda texnopark, kichik sanoat zonalari va hududiy klasterlarni barpo etish va rivojlantirishning nazariy asoslari, ularning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o'rni, ahamiyati, hozirgi holati, rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, tamoyillar va ularni shakllantirish va rivojlantirishning konseptual modeli o'rganilgan. Tadbirkorlik subyektlarini bu kabi obyektlarga tanlov asosida joylashtirishning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik mezonlari, kichik sanoat zonalari, logistika markazlari barpo etish va rivojlantirishning konseptual modeli, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasini integral baholash va shu asosda texnopark, kichik sanoat zonalari hamda klasterlarini turlarga ajratish hamda rivojlanish yo'nalishlarini belgilash, O'zbekistonda kichik sanoat zonalari va klasterlarini barpo etishda davlat-xususiy sherikligidan foydalanish masalalari, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi asosida shakllantirish va rivojlantirishning davlat tomonidan moddiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, aniqlangan muammolarni yechish maqsadida O'zbekiston sharoitida sanoat salohiyatini yanada oshirishda texnopark, kichik sanoat zonalari, hududiy klaster va logistika markazlarini barpo etish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

O'zbekiston sanoati salohiyatini yanada oshirishda texnopark, kichik sanoat zonalari, hududiy klaster va logistika markazlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalar, ilmiy yangiliklar va xulosalar shakllantirildi hamda har bir yangilikka mos xulosa va takliflar keltirildi.

Kalit so'zlar: *Sanoat, salohiyat, infratuzilma, texnopark, kichik sanoat zonalari, hududiy klaster, innovatsion klaster, logistika markazlari, raqobat, ilg'or xorij tajribalari, samaradorlik.*

ABSTRACT

In this master's work, the theoretical foundations of the establishment and development of technoparks, small industrial zones and regional clusters, their role in the development of the country's economy, their importance, current status, factors affecting their development, principles and monitoring indicators for evaluating their effectiveness have been studied in Uzbekistan. Social, economic and ecological criteria for the selection of business entities in such objects, a conceptual model for the establishment and development of small industrial zones, logistics centers, an integral assessment of the level of socio-economic development of the regions and, on this basis, the division of technoparks, small industrial zones and clusters into types and development defining directions, issues of using public-private partnership in the establishment of small industrial zones and clusters in Uzbekistan, mechanisms of state material support for formation and development based on the experience of developed foreign countries are included. Also, in order to solve the identified problems, scientific and practical proposals have been developed to improve the organizational and economic foundations of the establishment and development of technological parks, small industrial zones, regional clusters and logistics centers in the conditions of Uzbekistan.

In order to further increase the potential of Uzbekistan's industry, defined tasks, scientific innovations and conclusions on the development of the activities of technological parks, small industrial zones, regional clusters and logistics centers were formed, and conclusions and proposals corresponding to each innovation were presented.

Keywords: *Industry, potential, infrastructure, technological park, small industrial zones, regional cluster, innovation cluster, logistics centers, competition, advanced foreign experiences, efficiency.*

I BOB. KIRISH

1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Mamlakatimizda hududlarni kompleks iqtisodiy rivojlantirish orqali aholi bandligi va daromadlilikini ta'minlash hamda turmush farovonligini oshirish masalasiga strategik yo'nalish sifatida e'tibor qaratilib, so'nggi yillarda izchil islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Davlatning iqtisodiy taraqqiyotida insonning aqliy hamda ijodiy faoliyati natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish doimo alohida ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Bu yo'lda texnologik parklar, kichik sanoat zonalari, klasterlar va logistika markazlari esa innovatsion taraqqiyotni jadallashtiruvchi asosiy kuch bo'lib xizmat qiladi. Shu bois innovatsion faoliyat mexanizmlarini takomillashtirishda o'quv-ilmiy ishlab chiqarish majmualari, innovatsion markazlar, texnoparklar, texnopolislarni rivojlantirish bugungi shiddatkor zamon talabidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"¹ da milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish; sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash; yirik sanoat tarmoqlari va hududiy korxonalar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish; sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish; ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash; ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish; yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda tarmoqlararo sanoat

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" Farmoni. Toshkent sh., 2022